

**SHUKUR XOLMIRZAYEV QISSALARIDA QAHRAMON RUHIYATI
MASALASI****Zaynab Omonova Ilhom qizi***Termiz davlat universiteti o‘zbek adabiyotshunosligi yo‘nalishi magistranti***Annotatsiya:**

Shukur Xolmirzayev o‘zigacha bo‘lgan nasr an‘analarini davom ettirgan holda, ijodining dastlabki davrlarida o‘zi suygan va berilib o‘qigan ijodkorlarga ergashib, ta‘sir lanib ijod qiladi. Shu bilan birga Sh. Xolmirzayev, J. London, R. Tagor, A. Chexov yoki A. Qahorning quruq o‘zlashtiruvchisi emas, balki badiiy so‘z san‘atini milliy zaminda boyitishga harakat qildi. Sh. Xolmirzayev shaklan an‘anaviy yo‘lda mazmunan yangi qahramonlar yaratdi.

Kalit so‘zlar:

Sh. Xolmirzayev, tabiat, inson, hikoya, yozuvchi, mavzu, irodali, dunyo, yangilik, qahramon, xarakter, g‘oya, mazmun, yuksak.

Abstrakt

Shukur Kholmirzayev continued the literary traditions that had been formed before him. In the early years of his creative work, his style was influenced by the writers he deeply respected and frequently read. Even so, he was not just a follower of authors like Jack London, Rabindranath Tagore, Anton Chekhov, or Abdulla Khahhor. Instead, he aimed to develop literature in a way that reflected his own national identity. While his works remained traditional in form, he introduced original ideas and portrayed new kinds of characters.

Keywords:

Shukur Kholmirzayev, nature, human, story, writer, theme, determined, world, innovation, character, personality, idea, content, high level.

So‘z - har qanday ulug‘ san‘atkorning yozmishida ijodkor maqsad qilgan istagidan ko‘ra bir qancha qavat ortiq ma‘no-mazmunni ifodalab keladi-ki, bu Tangri hidoyat o‘laroq bichgan ijodkor qismatining rahmati va rag‘bati o‘laroq bo‘y ko‘rsatadi. Adabiyotning hal qiluvchi omili – qaysidir ma‘noda bosh asosi adibning shaxsiyati, uning ko‘ngli va e‘tiqodidir. Shaxsiyat esa chin ma‘noda adibni yoki shoirni barchadan chegaralab turuvchi to‘sin, hech bir tasvirni akslantirmagan ko‘zgu, hali hech kim yurmagan yolg‘izoyoq yo‘ldir. Bu shaxsiyat o‘zi yaratgan suyumli mavzular, qahramonlar, xarakterlar va tiplar bilan shu qadar jipslashib, omuxtalashib ketadi-ki, natijada yozuvchi bilan badiiy asar o‘rtasidagi muvozanat beqarorlashadi. Endi o‘quvchi adib va badiiy qahramon o‘rtasida bir buyuk do‘stlik, ellik borligini payqaydi. Bu qahramonlar yozuvchi to‘qigan yaltiroq, to‘qima

qahramonlar emas, balki hayotda biz bilan birga nafas olayotgan, bir qishloqda, bir yurtida yashayotgan sodda, to‘pori odamlar ekanligini anglaydi. Yotsiramaydi. Asarni begona qabul qilmaydi. Shunday buyuk adiblardan biri O‘zbekiston Xalq Yozuvchisi, yangilangan o‘zbek nasri yirik vakili, inson manzaralari musavviri Shukur Xolmirzayevdir.

Qirg‘iz xalqi ma‘rifati, urf-odati, millatning orzu-armonlari, muzaffar tarixi va bugunini so‘z san‘ati orqali dunyoga tanitgan buyuk adib Chingiz Aytmatov bo‘lsa, o‘zbek eli, uning fe‘l-atvori, tuyg‘u va kechinmalarini xalqning odmigina odamlari, bemisl tabiat manzaralari bilan qalamga olgan ijodkorlardan biri, tabiiyki Shukur Xolmirzayev edi.

1940-yil 24-martda Surxondaryo viloyati Boysun tumanida tug‘ilgan adib -Boysun kengliklari, tog‘lari va dashtlari bilan birgalikda ulg‘aydi, voyaga yetdi.

Shu sababdan Shukur Xolmirzayevning har bir asari yozuvchining yurti, tog‘lari, buloqlari, giyohlari va odamlari bilan shu qadar yaqin, shu qadar vobasta.

Ular mundarijasiga ko‘ra XX asrning ikkinchi yarmi ijtimoiy holati, badiiy tafakkur taraqqiyoti, insonlar shuuridagi o‘zgarishlar, evrilishlar, yuksalishlar va chekinishlardan hikoya qiladi.

Adib o‘zigacha bo‘lgan nasr an‘analarini davom ettirgan holda, ijodining dastlabki davrlarida o‘zi suygan va berilib o‘qigan ijodkorlarga ergashib, ta‘sir lanib ijod qiladi. “Shu bilan birga Sh.Xolmirzayev, J.London, R.Tagor, A.Chexov yoki A.Qahorning quruq o‘zlashtiruvchisi emas, balki badiiy so‘z san‘atini milliy zaminda boyitishga harakat qildi. Sh.Xolmirzayev shaklan an‘anaviy yo‘lda mazmunan yangi qahramonlar yaratdi”.¹ Sh.Xolmirzayev yashagan, ijodiy-g‘oyaviy jihatdan shakllangan yillarda ham, hali hurlik, erk novdalari kurtak ochmagan, bir bizning o‘lkada emas jahonning bir qator o‘lkalarida turfa xil ijtimoiy, ma‘rifiy g‘oyalar insonlarning onglarini ishg‘ol qilib borar, bu bilangina qanoatlanmay, ularning kundalik hayotiga, yashash tarzi, faoliyati, xatto tuyg‘ulariga ham ta‘sirini ko‘rsatmay qolmas edi. Bu albatta, sof hurriyat va haqiqat epkinlari edi. Adib ijod qilgan 70-80-yillarda hali sho‘rolar yoqqan olovning alangalari o‘chmagan, o‘lkaga yoyilgan nifoq, zulm, haqsizlik sarqitlari hali to‘liq yuvilib ulgurmagan edi.

Bu omonsiz kurash yillarida ham Sh.Xolmirzayev o‘z kuchini, o‘z ilhomini tenglik, adolat va umuminsoniy tuyg‘ular uchun to‘la-to‘kis baxshida etdi. Bir so‘z bilan aytganda, adib ijodida tabiat va inson manzaralari hamohang, vobasta harakat qiladi. Inson sharaf qozonadi. Tabiat erkalanadi. Va adib shu olam va odam orqali o‘z ona yurti va uning sofdil, beg‘ubor, baxtli va baxtsiz insonlarini xotirga oladi. Ularga bo‘lgan sog‘inchini va sevgisini milliy timsollar, muxtasar ifodalar orqali asarlari bag‘riga singdirib yuboradi. Sh.Xolmirzayev butun umr insonni, elatni, atrofimizdagi jamiyki

jonli va jonsiz mavjudotlarni, benihoya sevib, dunyoning, borliqning asl fitratiga hamisha vobasta ijod qiladi.

Dunyoda ikki ne‘mat: mehr-u muhabbat va mehnat insonni yuksaltira olishi, sharafsiz, shonsiz tarzidan sharaflil umrga sazovor etishi, kezi kelsa haqiqiy odamlilik maqomiga yetaklashini o‘z qahramonlari orqali isbot etadi.

Bugunga qadar yozuvchi ijodini o‘rgangan adabiyotshunos olimlar adibning hikoya janridagi asarlarini yuqori baholab, A.Qahhordan keyingi hikoyachilik an‘analarini nihoyatda ehtirosli suratlarda davom ettirganligini ta’kidlashadi. Darhaqiqat, adib ijodida muhim o‘rinni egallagan hikoyachilik asardan asarga ko‘chgan sari taraqqiy etib, rivoj topib, ko‘tarilib bordi. Bu esa vaqt va ilm orqali sayqallanib borayotgan adib qalamining qayrog‘ini oshirdi.

Yozuvchining qissalari ham xuddi hikoyalari singari teran, go‘zal timsollarga boy, serma‘no, badiiy jozibasi yuksak asarlar bo‘lib, undagi halol va mard, irodali, hayotsevar xarakterlar har bir kitobxon botinida o‘zgacha taassurotlar muhrlaydi. Adib qahramonlari A.Temur, Iskandar, Napaleondek buyuk saltanat fotihlari, dunyo va tabiatni boshqaruvchi iloh va ilohalar, jamiyat hayotida muhim o‘rin tutgan rahbar odamlar emas, qalbi qalbiga yaqin, oddiy, xokisor odamlar, o‘spirin bolalar, nuroniy keksalardir. Jumladan, adib qalamiga tegishli bo‘lgan “Oq otli”, “O‘n sakkizga kirmagan kim bor”, “Yo‘llar, yo‘ldoshlar”, “Yur, tog‘larga ketamiz!”, “Tuproq ko‘chalar” kabi qissalarning barchasida bosh qahramonlar yuragidan go‘daklik erkali ketmagan zavqqa, quvonchga o‘ch, orzulari serob o‘spirin bolalar edi. Yana bir ahamiyatli jihati adibning yuqoridagi barcha qissalarida Alpomish yurti Boysun sog‘inchi, baxmal adirlar, daryo-yu dashtlar hasrati qo‘shiq misol kuylanadi, xokisor, halol matonatli qishloqdosh odamlari e‘zozlanadi, alqanadi.

“G‘arbda – o‘tgan asrning yigirmanchi yillarida Hemenguey boshlagan “telegraf uslubi” paydo bo‘ldi. Oltmishinchi yillarda (“O‘n sakkizga kirmagan kim bor” qissasidan keyin Shukur Xolmirzayev nasrimizga singdira boshlagan bu uslub uning iste‘dodi yo‘nalishiga juda mos tushdi. “Ko‘rib yozish, dialoglar orqali inson xarakteri va ko‘ngli harakatini inja tasvirlash, muallif hikoyasidagi jumalarning qisqa va aniqligi, kitobxonga kinofilm ko‘rayotgan kabi taassurot qoldiradigan tasvir, so‘zdagi tejamkorlik...”²

Adabiyotshunos olim Olim Toshboyev o‘zining “Abadiy zamondosh” (Sh.Xolmirzayev hayoti va ijodiy faoliyatidan lavhalar) kitobida ijodkor haqida shunday deydi; “Adib har yili erta bahorda tug‘ilgan yurtiga borar ekan, qadr donlari qatorida albatta, ko‘nglida doim e‘zozlab, ardoqlagan jondoshi boychechakni ko‘rmay qaytmas edi. Chindan ham har ko‘klam Sh.Xolmirzayevni Boysunga boychechak chorlar, yozuvchi ta‘bir joiz bo‘lsa, ma‘shuqasini ko‘rgani hatto poyu piyoda ketishga tayyor oshiqdek entikish, hayajon bilan safarga yo‘lga chiqar edi. Chunki bu tansiq gul adib

uchun, avvalo, tiriklik, pokizalik, ma’sumlik, oqlik va ezgulik ramzi sifatida tog’- toshlarda qolib ketgan bolalik qiyofasida namoyon bo’lar, uni ko’rib, hidlab, to’yib-to’yib tomosha qilgach ona ko’ksidagi go’dakdek tinchib qolar edi”.³ Adib “Oq otli” qissasini o’zi suyg’an bahor elchisi boychechaklar tasviri bilan boshlaydi va ishonuvchan bola ruhiyatini, do’stlik, birodarlik tuyg’ularini yuqori pardalarda hikoya qiladi. Oq otda otasining topshirig’i bilan yo’lga chiqqan Qosimjonning tegirmonchi chol bilan uchrashuvi, o’q magazini yonida bir firibgar yolg’onchi odamga duch kelib, uyiga birga borishi, undan tekinga o’q olib, evaziga qorako’l teri olib kelib berishga va’da berishi tasvirlanadi. Bola rahmdil edi, ishonuvchan edi. Bir so’z bilan aytganda, bola “bola” edi. Yo’lda ertasi kun uyga qaytar ekan daryo labida bolasi endi tug’ilib o’lib qolgan qo’zichoqni va qo’rquv-sarosima ichida dildirab turgan ona qo’yni ko’radi. Suhbatdoshiga bergan va’dasi esiga tushib, o’sha o’lik qo’zichoq terisini shilib uyga olib kelib, yerga ko’mib qo’yadi. Bu qo’y esa otasiga tegishli bo’lib, Sherzod otli yetimgina bolakay boqib yurar edi. Qo’zichoq terisini shilib olgan boshqa-yu ayblangan boshqa bo’ladi. Yozuvchi aybsiz aybdor bo’lish hasratini, o’ziga to’q “rais”lar bolasi e’zozda-yu, halol, peshona teri bilan kun ko’ruvchi sag’irlar xorligi, zabunligini tasvirlar ekan, Qosimjon va Sherzod o’rtasidagi qarama – qarshiliklar fonida har qaysi qahramonining ichki dunyosini ravon ifodalaydi. O’zining hayotini xavfga qo’yib, Qosimni deb yovvoyi it hujumiga uchragan Sherzodning hech kimi, hech nimasi yo’q edi, biroq yonidagi yo’ldoshini himoya qilishdan chekinmagan, gina bilmaydigan botir yuragi, ezgu qalbi bor edi. Biroq Qosimjon ham yomon bola emas.

Onasining nohaqligi bilan do’sti Sherzodning tanti, begunoh ko’nglini taroziga tortar ekan, bir necha og’ishlarga qaramay, so’ngda baribir haqligi, insoniyligi g’olib keladi. U samimiy do’stining asl fitratini anglaydi. Adibning “O’n sakkizga kirmagan kim bor” qissasidagi musaffo muhabbat, “Ot yili” qissasidagi tulporlar bilan qardoshlardek suhbat quradigan chavandozlar tuyg’ulari ham yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan.

Sh.Xolmirzayevning bir qator asarlarida jonivorlarga bo’lgan muruvvat, mehr, do’stona sadoqat hislari ifoda qilingan bo’lib, “Yur, tog’larga ketamiz!” qissasi ham aynan shunday turkum asarlardan biridir.

Qissada faslga qarab goh tog’ga, goh cho’lga ko’chib chorva boqib kun ko’radigan 10-15 xo’jalikdan iborat chorvadorlar hayoti, ular orasidagi bir oila sarguzashti hikoya qilingan.

Ularning uyiga bexosdan kelib qolgan bo’riga chatish kuchuk bola qissa so’ngiga qadar bolakayning vafodor do’sti, qadrdoniga aylanadi.

Asarda hasad, ko’rolmaslik kabi illatlar yosh tanlamasligi, qarimasligi, o’lmasligi adib tomonidan shu qadar mahorat bilan ko’rsatib beriladi-ki itni fojiali holatga duchor

qilgan “yovuz”- yirtqich itlar emas, Yoshi qaytib, umri poyonlab qolgan bo’lishiga qaramay ko’ngli qora, iymoni sust, kekxa qariya bo’lib chiqadi. Oxirida baribir sadoqat va muhabbat hattoki hayvonot bog’idagi temir qafaslarni, zanjirlarni parchalab ta shlab g’olib chiqishi va bolakay yana o’zining tilsiz, vafodor do’sti bilan qovushishi hikoya qilinadi.

Adibning dastlab “To’lqinlar” deya nomlanib, keyinchalik “Bukri tol” nomiga o’zgartirilgan qissasida esa insonga xos bo’lgan tuyg’u va kechinmalar fonida juda ulkan haqiqatlar fosh etiladi. Sevimli turmush qurgan eridan erta ajralgan Sanam ayriliq tufayli uyga qamalib qoladi-yu, hayotning bor quvonchidan etak silkiydi. Avvalo, qissaning kompozitsion qurilishiga e’tibor qaratsak, yozuvchining asarni bir qancha boblarga ajratganining guvohi bo’lamiz. Jami 9 ta bobga bobga bo’lingan qissadagi har bir qism voqealari misoli 9 marvariddek bir ipga tiziladi. Ushbu qissada ham Sh. Xolmirzayev inson va tabiat manzaralari musavviri o’laroq, ham tabiatning o’zgarish va odil haqiqatlarini, ham insonning murakkab ruhiyat hodisalarini juda teran tasvirlashga intiladi.

Onasi Oyna opaning idorasiga ishga kirgan Ma’murjon bolalikdan yetim o’sgan bo’lib, tuzuk-quruq tarbiya ko’rmagan yigitning shuurida halol-harom, haq-nohaq deya nomlangan buyuk tushunchalarning izohi mavjud emas edi. Uning uchun yashamoq -kun ko’rmoq edi, xolos. Shu sabab, keyinchalik Sanam bilan tanishib, oila qurganlaridan keyin ham uning xulq-atvorida o’sha egrilik sarqitlari qolib ketaveradi. O’rtada Sanam va Ma’murjon munosabatlari tobora jonlanib, his-tuyg’ulari kuchaygan pallalarda o’quvchi bexosdan Ma’murjonda yirik bir o’zgarish ro’y berganiga, uning ezgu yo’lga kirganligiga chin dildan ishonadi. Uning ko’nglida uyg’ongan beg’ubor, zilol muhabbat yovuzlikka qarshi buyuk bir inqilob yasagandek tuyuladi. Biroq, yozuvchi aytmoqchi bo’lgan tabiatning odil hukmi bor: boshdanoq bukri o’gan nihol, yillar o’tib sarvdek tik daraxtga aylanib qolmaydi, balki shu bukri va egri holida qolib ketaveradi.

Qissa qahramoni ham xuddi shunday, yoshlikdan egrilikka o’rgangan, halollikdan, to’g’rilikdan ta’lim olmagan, ularni farqlamagan inson bo’lgani sababli Yoshi qay erga borsa ham, shu bukri, egri o’sgan daraxt singari to’g’ri bo’lmasligini, bo’lolmasligini bayon qiladi.

To’g’ri, Ma’murjon o’z nafsiga, hirs-u istaklariga sodiq qolganicha, o’zidagi xudbin, tuban illatlarni zavol toptirolmadi. Biroq, bilib-bilmay boshqa bir qalbda sof hislar, ertangi kunga umid kurtaklarini uyg’ota oldi. Sanamning ko’nglini yashillata, yashnata, bir so’z bilan aytganda unga muhabbat bera oldi.

Xulosa o’rnida aytganda, Shukur Xolmirzayev o’zbek adabiyotida katta hodisani boshlab bergan buyuk adib bo’lib dunyoga keldi. “Shukur aka jahon nasri tajribalarini o’zbek adabiyotiga bemalol olib kirgan, uni o’zimiznikiga aylantirgan, nasrimiz ufqini kengaytirgan, uni jaydarilik va “qishloqilik” dan saqlab qolgan yakto adiblarimizdan. Shukur Xolmirzayev

ijodi – realistik yo‘nalishdagi o‘zbek nasrining cho‘qqilaridan .Ehtimol ,eng baland cho‘qqisidir”.⁴

Foydalanilgan adabiyotlar

1.G.N.Tavaldiyeva .”Shukur Xolmirzayev hikoyalarida tabiat va inson munosabatlarining badiiy talqini”.2020.

2.Usmon Azim.So‘ngso‘zlar.-Toshkent:Ilm-Ziyo-Zakovat,2020.-B.376.

3.Olim Toshboyev.Abadiy zamondosh.Sh,Xolmirzayev hayoti va ijodiy faoliyatidan lavhalar.-Toshkent:G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijtimoiy uyi,2018.-B.349

4.Usmon Azim.So‘ngso‘zlar.-Toshkent:Ilm-Ziyo-Zakovat,2020.-B.375-376.